


Xorazm viloyatida 2018-yil yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.

Mamlakatimizda 2018-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilning yanvar-aprel oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1683,9 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,7 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2018 yil yanvar-aprel holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 94,5 foizni tashkil etdi (2017-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati 117,5 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,004 foizni (o'sish sur'ati 107,7 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 4,8 foizni (o'sish sur'ati 117,8 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,


chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,7 foizni (o'sish sur'ati 144,1 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2017-yil yanvar-aprel oyilarga nisbatan 136,3 foiz), Shovot tumani (113,6 foiz), Urganch tumani(112,4 foiz), Urganch shahri (111,5 foiz) va Gurlan tumani (108,4)ga o'sganini ko'rish mumkin.

2018-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)




2018-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

2018-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 40,2 foiz, Urganch shahri 23,5 foiz, Xonqa 8,3 foiz, Bog'ot 5,5 foiz, va Shovot tumani 4,4 foizni tashkil qiladi.

**2018-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat
mahsulotini
ishlab chiqarish.**

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	1683,9	117,7
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,1	107,7
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,1	107,7
Qayta ishlash faoliyati	1590,8	117,5
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	315,5	102,7
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	49,7	126,9
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	402,9	103,3
Kiyim ishlab chiqarish	33,4	100,8
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1,6	101,6
Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	1,3	107,5
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	3,7	105,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,2	107,7
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,01	107,7
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	3,1	105,0
Asosiy farmasevtika	1,4	102,8


Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	5,8	107,9
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	48,8	108,5
Metallurgiya sanoati	2,3	107,2
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	37,3	132,0
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	107,7
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	6,1	106,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	32,3	107,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	603,0	144,9
Mebel ishlab chiqarish	6,6	109,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	30,7	90,5
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	4,6	91,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	81,2	117,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	11,8	144,1
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	995,3	119,7
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	270,4	108,8
nooziq-ovqat tovarlari	713,9	124,9

**2018-yil yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(mlrd. so'm)**




Viloyatda 995,3 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 119,7 foizni tashkil etdi.

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)**




Shahar va tumanlarda 270,4 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 713,9 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2017-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan mos ravishda 108,8 foiz va 124,9 foiz) ishlab chiqarildi.


**2018-yil yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(foizda)**



2018-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2018-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

“Sanoat statistikasi” bo’limi

Nashr uchun ma’sul:

K.Kuryazov

Aloqa telefoni (0362) 224-64-99